

MINTAQALARDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARINING RIVOJLANISH
XUSUSIYATLARIОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ХЛОПКОТЕЧНЫХ КЛАСТЕРОВ В
РЕГИОНАХFEATURES OF THE DEVELOPMENT OF COTTON-WOVEN CLUSTERS IN THE
REGIONSXayitov Rustam Burxonovich
Navoiy innovatsiyalar universiteti"Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari" kafedrası o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17921316>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqalarda paxta-to'qimachilik klasterlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish zaruriyati, mavjud imkoniyatlari va ularni amalga oshirish xususiyatlari yoritilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается необходимость социально-экономического развития хлопчатобумажно-текстильных кластеров в регионах, существующие возможности их создания и особенности реализации.

Abstract. This article discusses the need for socio-economic development of cotton-textile clusters in the regions, their existing opportunities, and the features of their implementation.

Kalit so'zlar. Mintaqa, mintaqqa iqtisodiyoti, klaster, paxta-to'qimachilik klasteri, mahsulot.

Ключевые слова: Регион, региональная экономика, кластер, хлопково-текстильный кластер, продукция.

Key words. Region, regional economy, cluster, cotton-textile cluster, product.

Ma'lumki, paxta-to'qimachilik klasterlari qishloq xo'jaligidan boshlab tayyor mahsulot ishlab chiqarish va uni eksport qilishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni yagona tizimga birlashtiruvchi iqtisodiy model bo'lib hisoblanadi. Bunday klasterlar, ayniqsa, mintaqalar iqtisodiyotining jadallik bilan rivojlanishida muhim harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki, bugungi rivojlanish bosqichida klasterlar faoliyatini yanada kengaytirish va takomillashtirish, shuningdek, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini amalda qo'llash yurt ravnaqini ta'minlash hamda aholining farovonligini oshirishda yangi imkoniyatlar yaratadi [1]. Shu bois paxta-to'qimachilik klasteri iqtisodiy taraqqiyotning zamonaviy shakllaridan biri sifatida ko'riladi. U keng miqyosli loyihalar asosida barpo qilinib, iqtisodiy o'sishning muhim shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi [2]. Klaster mohiyatini chuqur anglash sohaga oid mutaxassislar va keng jamoatchilik uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur klasterlar samarali shakllangani iqtisodiyotning ko'pgina yo'nalishlarida qo'llanilib, xususiy sektor o'sishi va qishloq xo'jaligida davlat ishtiroki qisqarishiga imkon yaratmoqda [3].

Yurtimizda paxta-to'qimachilik klasterlarining shakllanishi va rivojlanishi o'ziga xos bosqichlarni bosib o'tdi. So'nggi yillarda faqat xom paxta eksportiga tayanish amaliyoti bekor qilinib, o'rniga qo'shilgan qiymat yaratishga asoslangan to'liq klaster tizimiga o'tildi. Ushbu

yondashuv ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va eksport salohiyatini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Mamlakatning barcha hududlarida klasterlar rivojlanib, ularning asosiy vazifasi iqtisodiy faoliyatni kompleks tarzda yo'lga qo'yishdan iboratdir. Mintaqalarda faoliyat yuritayotgan klasterlar aholining zarur mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda ham muhim o'rin egallaydi. Ularning iqtisodiy rivoji, avvalo, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi orqali namoyon bo'ladi. Hamda mintaqalarda paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muhim zaruriyatga ega. Bu tizim iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, bandlik, infratuzilma, innovatsiya va eksport kabi ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga sabab bo'ladi. Natijada, klasterlar mintaqalarning barqaror rivojlanishi, aholining turmush darajasini ko'tarish va iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlashda asosiy drayverlardan biriga aylanadi.

Paxta-to'qimachilik klasterlarining mintaqaviy iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasi quyidagicha ifodalanadi:

- qo'shilgan qiymat zanjirining shakllanishi. Klasterlar paxta yetishtirishdan tortib, uni qayta ishlash, ip va mato ishlab chiqarish, kiyim-kechak tayyorlash hamda eksportgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oladi. Ushbu jarayon mahalliy resurslardan samarali foydalanish, xom ashyoning to'liq qayta ishlanishi va tayyor mahsulot eksporti orqali qo'shimcha daromad olish imkonini beradi.

- mintaqaviy iqtisodiy o'sishga turtki berish. Klaster faoliyati qishloq joylarda industriallashuv jarayonini tezlashtirmoqda. Natijada, yangi ishlab chiqarish korxonalari, infratuzilma va logistika obyektlari barpo etilmoqda. Bu esa hududning yalpi ichki mahsulotini oshiradi hamda tadbirkorlik muhitini yaxshilaydi.

- bandlikni oshirish va aholining daromadlarini ko'paytirish. Klaster tizimi bevosita va bilvosita minglab ish o'rinlari yaratadi. Fermerlar, ishlab chiqaruvchilar, transport, omborxona, tikuvchilik va marketing sohasidagi mutaxassislar doimiy ish bilan ta'minlanmoqda. Bu esa aholining daromad darajasini oshirib, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

- eksport salohiyatining kengayishi. Xalqaro talabga mos mahsulotlar ishlab chiqarilishi natijasida klasterlar tashqi bozorda raqobatbardoshlikni oshirmoqda. Tayyor mato, trikotaj va kiyim-kechak eksporti mintaqaning eksport tuzilmasini diversifikatsiya qilishga xizmat qilmoqda.

- innovatsiya va zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish. Klasterlar faoliyatida yangi texnologiyalarning qo'llanishi paxta sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va energiya resurslaridan tejamkor foydalanish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, malakali mutaxassislar tayyorlashga bo'lgan talab ham oshib bormoqda.

- investitsiyalar uchun jozibadorlik. Paxta-to'qimachilik klasterlarining rivojlanishi mahalliy va xorijiy investorlar uchun qulay sharoit yaratadi. Talabning barqarorligi, davlat imtiyozlari va infratuzilmaning tayyorligi investitsiyalar jalb etilishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, paxta-to'qimachilik klasterlarining mintaqalardagi rivoji qishloq xo'jaligi va umuman iqtisodiyotda muhim o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Ular mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon yaratib, yangi ish o'rinlari ochish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, infratuzilmani yaxshilash va investitsiya muhitini takomillashtirishga katta hissa qo'shmoqda. Natijada, klasterlar mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning yetakchi drayverlaridan biri sifatida

shakllanmoqda. Shu bois, mintaqalarda paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish bugungi globallashtirish jarayonida iqtisodiy samaradorlikni oshirish va aholi farovonligini yaxshilash uchun muhim omilga aylanmoqda. Klaster tizimi qishloq xo'jaligi bilan sanoatning o'zaro bog'liq holda rivojlanishini ta'minlaydi, chunki unda paxta yetishtirishdan boshlab tayyor mahsulot ishlab chiqarish va uni eksport bozorlariga chiqarishgacha bo'lgan barcha bosqichlar yagona mexanizm sifatida ishlaydi. Bu borada mintaqalarda ushbu tizimning rivojlanishi iqtisodiy barqarorlik, bandlik, innovatsion faollik va investitsion jozibadorlikni kuchaytiruvchi kuchli omil sifatida qaraladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Jamolova F.E. Paxta-to'qimachilik klasterlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari. // "Мировая наука", №4(85), 2024. - 20 b.
2. Khalmatjanova G.D. "Cotton-textile cluster" - one of the conditions of economic development. // German International Journal of Modern Science №7, 2021. - p. 4.
3. Otabek D. Djurabaev. The current state and level of development of the production forces of cotton and textile clusters. // E3S Web of Conferences 395, 02001 (2023), ETSAIC2023. - p. 3.